



**SUN'IY INTELLEKT ISHTIROKIDAGI ONLAYN
MUNOSABATLARNING HUQUQIY, AXLOQIY VA IJTIMOIIY
JIHATLARI**

Nig'matullayeva Laylo Tohir qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti
OAV huquqi yo'nalishi magistratura talabasi

Annotatsiya:

Mazkur tezisdagi sun'iy intellekt (SI) ishtirokidagi onlayn munosabatlarning huquqiy, axloqiy va ijtimoiy jihatlari tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarining tobora ko'proq ijtimoiy tarmoqlar, elektron tijorat, onlayn maslahatlar, avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish tizimlari va boshqa raqamli platformalarda qo'llanilishi insonlar o'rtasidagi munosabatlar shaklini tubdan o'zgartirmoqda. Tahlil natijasida sun'iy intellekt asosidagi onlayn munosabatlar uchun huquqiy me'yorlar ishlab chiqish zarurati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: iste'molchilar, virtual aloqa, sun'iy intellekt algortimlari, soxta kontent, etik tamoyillar, axloqiy muommolar.

**ПРАВОВЫЕ, ЭТИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ОНЛАЙН-
ВЗАИМООТНОШЕНИЙ С УЧАСТИЕМ ИСКУССТВЕННОГО
ИНТЕЛЛЕКТА**

Нигматуллаева Лайло Тохир кызы
Магистрантка направления «Право средств массовой информации»
Ташкентский государственный юридический университет

Аннотация:

В данной тезисной работе анализируются правовые, этические и социальные аспекты онлайн-взаимоотношений с участием искусственного интеллекта (ИИ). В условиях цифровой трансформации технологии ИИ все шире применяются в социальных сетях, электронной коммерции, онлайн-консультациях, системах автоматизированного принятия решений и других



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th July, 2025

цифровых платформах, что кардинально изменяет форму взаимодействия между людьми. В результате анализа обоснована необходимость разработки правовых норм для регулирования онлайн-взаимоотношений на основе искусственного интеллекта.

Ключевые слова: потребители, виртуальная коммуникация, алгоритмы искусственного интеллекта, фейковый контент, этические принципы, моральные проблемы.

LEGAL, ETHICAL, AND SOCIAL ASPECTS OF ONLINE INTERACTIONS INVOLVING ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Nigmatullayeva Laylo Tohir qizi

Tashkent State University of Law

Master's student in the field of Media Law

Annotation:

This thesis analyzes the legal, ethical, and social aspects of online interactions involving artificial intelligence (AI). In the process of digital transformation, the increasing use of AI technologies in social networks, e-commerce, online consultations, automated decision-making systems, and other digital platforms is fundamentally changing the nature of human interactions. The analysis substantiates the necessity of developing legal norms to regulate online relationships based on artificial intelligence.

Keywords: consumers, virtual communication, artificial intelligence algorithms, fake content, ethical principles, moral issues.

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi onlayn munosabatlar va insonlar o'rtasidagi raqamli muloqot shakllarini tubdan o'zgartirmoqda. Bu texnologiyalar hayotimizning turli jabhalariga kirib borar ekan, ular ijobiy imkoniyatlar bilan birga, muhim ijtimoiy va axloqiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda.



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th July, 2025

Sun'iy intellekt ishtirokidagi onlayn munosabatlar — bu fuqaroviy huquq subyektlari va internet orqali sun'iy intellekt tizimlari yordamida yuzaga keladigan o'zaro virtual aloqalar, muloqot va hamkorlik shakllarini anglatadi. Bu turli sotuvchi-xaridor orqali amalga oshmoqda va rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga, keng polosali va mobil internetning ommalashuvi, hamda mobil qurilmalarning keng tarqalishi, xaridor va sotuvchilarning elektron tijoratdagi ishtirok shaklini o'zgartirdi. Odatda, iste'molchilar biror mahsulot yoki xizmat sotib olish istagini bildirganlarida, ular avval mahsulot yoki xizmatning asosiy xususiyatlarini (masalan, mahsulot nomi yoki joylashuvi) ko'rsatadilar. Shundan so'ng, onlayn platforma izlash algoritmi ushbu xususiyatlarga mos natijalar to'plamini iste'molchiga taklif qiladi. Bu natijalar platformaning mahsulot va sotuvchilar haqidagi indekslangan bilimlariga asoslangan bo'lishi mumkin va xaridor haqida ilgari yig'ilgan ma'lumotlar asosida shaxsiylashtirilgan ham bo'lishi mumkin. Iste'molchi keyinchalik qidiruv interfeysidagi filtrlash funksiyalari kabi imkoniyatlardan foydalanib, natijalarni toraytiradi va o'z istaklariga eng mos mahsulot yoki xizmatni aniqlaydi. Turli akademik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qidiruv natijalaridagi mahsulotlarning joylashuv tartibi iste'molchining tanloviga sezilarli ta'sir ko'rsatadi¹. Umuman olganda, agar onlayn platforma foydalanuvchi faolligidan (reklama daromadi orqali) yoki muvaffaqiyatli bitimdan (komissiya yoki sotuv to'lovi) foyda ko'rsa, moslik mexanizmlari bu platformaning biznes modeli uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Bundan tashqari, bunday moslik mexanizmlari ko'pincha narx belgilash mexanizmlari bilan ham bog'liq bo'ladi.

SI noto'g'ri ma'lumotlarni chiqarishi, yoki yetarlicha tekshirilmagan manbaaga asoslanishi, mahsulot yoki xizmat haqidagi barcha muhim jihatlarni ko'rsatmasligi mumkin. Bunday holatlarda iste'molchilarda tovar yoki xizmatning xususiyatlari, sifati, kelib chiqishi haqida noto'g'ri tasavvur paydo bo'ladi va iste'molchi qarorni noto'g'ri axborot asosida qabul qiladi. SI ba'zan reklama algoritmlari orqali foydalanuvchini muayyan mahsulotni tanlashga "majbur qiluvchi" tarzda ish yuritadi. Bu erkin tanlov huquqini buzadi. Tovar alternativlari haqida teng va xolis

¹ Ursu R. The power of rankings: Quantifying the effect of rankings on online consumer search and purchase decisions // Marketing Science. – 2016. – T. 37, №4. – B. 530–552. – URL: <https://dx.doi.org/10.2139/ssrn.2729325> (murojat qilingan sana: 22.05.2025).



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th July, 2025

axborot berilmaydi, faqat ko‘proq foyda keltiradigan mahsulot tavsiya qilinadi. Sun‘iy intellekt foydalanuvchining shaxsiy ma‘lumotlariga asoslanib, unga noto‘g‘ri yo‘naltirilgan tavsiyalar yoki reklamalar berishi mumkin. Foydalanuvchining xarid tarixi asosida unga kerak bo‘lmagan, lekin yuqori narxdagi mahsulotlar sun‘iy ravishda targ‘ib qilinadi. SI xizmatlarida iste‘molchi aniq qaysi tashkilot yoki shaxs mahsulotni taklif qilayotganini anglay olmasligi mumkin. Chatbot orqali xizmat taklif etiladi, lekin orqasida qaysi sotuvchi yoki kompaniya turgani aniq ko‘rsatilmagan. Agar sun‘iy intellekt iste‘molchiga mahsulot, xizmat yoki ishlab chiqaruvchi haqida noto‘g‘ri, yetarli bo‘lmagan yoki chalg‘ituvchi axborot bersa, bu holat iste‘molchi huquqlariga zid hisoblanadi. Bunday vaziyatlarda mas‘uliyat SI tizimini joriy qilgan yoki foydalanuvchiga xizmat ko‘rsatgan ijrochi, ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi zimmasida bo‘ladi. SI texnologiyalarining tobora kengayib borishi bilan ularning etik jihatlari xususan, tarafkashlik, manipulyatsiya, kamsitish va boshqa nojo‘ya maqsadlarda qo‘llanilishi jiddiy muhokama va tartibga solishni talab qilmoqda. Texnologiya kompaniyalari tomonidan etik SI tamoyillarini qabul qilish, iste‘molchilarni himoya qilishga qaratilgan kuchli huquqiy asoslarni yaratishda muhim qadam bo‘lishi mumkin. Sun‘iy intellektning etik jihatlari tartibga solish uchun texnologiya kompaniyalari, hukumatlar, fuqarolik jamiyati va boshqa manfaatdor tomonlar o‘rtasida hamkorlik zarur. Bu hamkorlik SI texnologiyalarining inson huquqlari va etik qadriyatlarga mos ravishda rivojlanishini ta‘minlaydi. SI texnologiyalarining jadal rivojlanishi axloqiy muammolarni keltirib chiqarmoqda, xususan noto‘g‘ri ma‘lumotlar tarqatish, jinsiy zo‘ravonlikni rag‘batlantirish va ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni kuchaytirish kabi salbiy oqibatlar yuzaga kelmoqda. Generativ modellar, realistik, ammo soxta kontent yaratish orqali noto‘g‘ri ma‘lumotlar tarqatish imkonini beradi. Bu esa jamoatchilik ishonchini zaiflashtiradi va demokratik jarayonlarga tahdid soladi. SI texnologiyalari ayollarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlikni ham kuchaytirishi mumkin. SI yordamida ayollar, jumladan mashhur shaxslar va o‘quvchilar, ishtirokisiz yaratilgan soxta pornografik kontent tarqatilmoqda².

² Azmoodeh A., Dehghantanha A. Deep Fake Detection, Deterrence and Response: Challenges and Opportunities. – Kanada: University of Guelph, 2022. – 30 p.



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th July, 2025

Shunday ekan, keng ommaga mo'ljallangan sun'iy intellekt mahsulotlari va xizmatlari, oliy o'quv yurtlariga qabul dasturlari, chat-botlar va bilim jamlovchi platformalar ko'plab muammolar, jumladan qashshoqlik, ta'lim yetishmasligi, surunkali kasalliklar va irqiy kamsitishga qarshi kurashda muhim hissa qo'shishi mumkin bo'lgan yaxshi niyatli kuchlar sifatida targ'ib qilinmoqda. SI ning axloqiy jihatdan to'g'ri qo'llanilishi shuni taqozo qiladi-ki, ma'lumotlar shaxsiy daxlsizlikni hurmat qilgan holda to'planishi va ishlatilishi, hamda kamsitishga yo'l qo'yilmasligi kerak. Bundan tashqari, SI texnologiyalari ishchi kuchiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi ba'zi ish o'rinlari avtomatlashtirildi yoki SI tomonidan butunlay o'zgartirildi. SI rivojlanishda davom etar ekan, korxonalar eng so'nggi yutuqlardan xabardor bo'lishlari va SI texnologiyalarini axloqiy va mas'uliyatli tarzda qo'llashlariga ishonch hosil qilishlari lozim³. Iste'molchilar orasida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik sun'iy intellektning imkoniyatlarini ko'radi, biroq uning xavflaridan xavotirda. Odamlar sun'iy intellektidan sog'liqni saqlash, ilmiy tadqiqotlar yoki atrof-muhit resurslarini boshqarish kabi sohalarda yoki shunchaki qiziqarli va ijodiy vosita sifatida foydalanishni ijobiy baholaydilar. Yuridik xizmat ko'rsatuvchilar va tartibga soluvchilar sun'iy intellekt ta'sir qiladigan keng sohalarni ko'rib chiqishdi: masalan, yuridik tadqiqotlar, shartnomalarni ko'rib chiqish, elektron dalillarni aniqlash (e-discovery), hujjatlarni tuzish yoki tahlil qilish, xavf va natijalarni bashorat qilish, katta hajmdagi matnlarni qisqacha bayon qilish kabi. Bundan tashqari, yuridik firmalar ishga qabul qilish, treninglar va marketing kabi umumiy biznes faoliyatlarida ham SI dan foydalanishlari mumkin⁴.

SI va turdosh texnologiyalari sohasida eng ilg'or davlatlar, masalan, AQSh, Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Yaponiya va Janubiy Koreya allaqachon SI ishlab chiqish va undan foydalanishni tartibga solishga qaratilgan normativ aktlar va loyiha hujjatlari majmuiga ega. O'zbekistonda SI texnologiyalarining rivojlanishi - davr talabi. Buni inobatga olib, 2021 yil 17 fevralida O'zbekiston Respublikasi

³ Xiong Y. The Impact of Artificial Intelligence and Digital Economy Consumer Online Shopping Behavior on Market Changes: maqola. – China: DCU, 2022. – 12 p.

⁴ Coll L. What Does AI Mean for Consumers of Legal Services? – 2024. – URL: <https://www.legalservicesconsumerpanel.org.uk/blog/what-does-ai-mean-for-consumers-of-legal-services> (murojat qilingan sana: 17.05.2025).



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th July, 2025

Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur hujjat SI texnologiyalarining kelgusi rivoji uchun huquqiy asos yaratdi, uning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasiga muvofiq, shuningdek, mamlakatda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ulardan keng foydalanish, raqamli ma'lumotlarning yuqori sifati va hamma foydalana olishini ta'minlash, belgilangan sohada malakali mutaxassislarni tayyorlash maqsadida qaror bilan 2021-2022 yillarda "Sun'iy intellekt texnologiyalarini o'rganish va joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi" tasdiqlangan bo'lib, u, jumladan, normativ-huquqiy bazani yaratish kabi ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga oladi⁵.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili orqali dunyo ko'plab sohalarda inqilob ostonasida turibdi. Moliya, milliy xavfsizlik, sog'liqni saqlash, jinoyat adliya tizimi, transport va aqlli shaharlar kabi sohalarda allaqachon muhim texnologik joriy etishlar amalga oshirilib, qaror qabul qilish, biznes modellar, xavfni boshqarish va tizim samaradorligiga ta'sir ko'rsatmoqda. Bu yutuqlar katta iqtisodiy va ijtimoiy foydalar keltirmoqda. SI tizimlari qanday shakllanishi butun jamiyat uchun muhim oqibatlarga olib keladi. Siyosiy masalalar qanday hal qilinishi, axloqiy ziddiyatlar qanday yarashtirilishi, yuridik muammolar qanday yechim topishi va SI hamda ma'lumotlar tahliliga qanchalik shaffoflik talabi qo'yilishi juda muhimdir. Dasturiy ta'minot ishlab chiqishdagi insoniy tanlovlar, qarorlar qanday qabul qilinishiga va ular tashkilotlar faoliyatiga qanday integratsiyalashuviga ta'sir ko'rsatadi⁶. Aynan shu jarayonlar qanday amalga oshirilayotgani chuqur tushunilishi zarur, chunki bu jarayonlar yaqin kelajakda keng jamoatchilik hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi. SI inson faoliyatida inqilobiy o'zgarish bo'lishi, hattoki tarixdagi eng muhim inson ixtirosiga aylanishi mumkin. Sun'iy intellekt texnologiyalari onlayn munosabatlar sifatini oshirsa-da, bu sohadagi yondashuvlar muvozanatli, mas'uliyatli va inson huquqlarini inobatga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

⁵ Sun'iy intellekt tizimlari taraqqiyotining huquqiy tahdidlari. – 2023. – URL:

<https://legalclinic.uz/tpost/3c09323ax1-suniy-intellekt-tizimlari-taraqqiyotinin> (murojat qilingan sana: 17.05.2025).

⁶ Tillemann L., McCormick C. Roadmapping a U.S.-German Agenda for Artificial Intelligence Policy: qo'llanma. – New York: New America, 2017. – 16 p.



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th July, 2025

Qo'llanilgan manbaalar ro'yxati:

1. Azmoodeh A., Dehghantanha A. Deep Fake Detection, Deterrence and Response: Challenges and Opportunities. – Kanada: University of Guelph, 2022. – 30 p.
2. Sun'iy intellekt tizimlari taraqqiyotining huquqiy tahdidlari. – 2023. – URL: <https://legalclinic.uz/tpost/3c09323ax1-suniy-intellekt-tizimlari-taraqqiyotinin> (murojat qilingan sana: 17.05.2025).
3. Tillemann L., McCormick C. Roadmapping a U.S.-German Agenda for Artificial Intelligence Policy: qo'llanma. – New York: New America, 2017. – 16 p.
4. Ursu R. The power of rankings: Quantifying the effect of rankings on online consumer search and purchase decisions // Marketing Science. – 2016. – T. 37, №4. – B. 530–552. – URL: <https://dx.doi.org/10.2139/ssrn.2729325> (murojat qilingan sana: 22.05.2025).
5. Xiong Y. The Impact of Artificial Intelligence and Digital Economy Consumer Online Shopping Behavior on Market Changes: maqola. – China: DCU, 2022. – 12 p.
6. Coll L. What Does AI Mean for Consumers of Legal Services? – 2024. – URL: <https://www.legalservicesconsumerpanel.org.uk/blog/what-does-ai-mean-for-consumers-of-legal-services> (murojat qilingan sana: 17.05.2025).